



**PEDAGOGIK AMALIYOTDA TALABA-O'QUVCHI
INTERAKSIYASI VA MUOMALA MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH**

Pirnazarova Shahlo Boynazar qizi

O'zbekiston - Finlandiya pedagogika instituti

Pedagogika kafedrasи o'qituvchisi

sboynazarovna@gmail.com

Normurodova Zuhra G'ayrat qizi

O'zbekiston- Finlandiya pedagogika instituti talabasi

Normurodova2001zuhra@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada pedagogik amaliyot jarayonida muomala madaniyatining shakllanishi va talaba-o'quvchi o'zaro munosabatlarining o'rni tahlil qilinadi. Muomala madaniyati shaxslararo aloqaning asosiy tarkibiy qismi sifatida qaralib, ta'lif jarayonida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Amaliy kuzatuvlar, metodik tahlillar asosida talaba-amaliyotchilarining o'quvchilar bilan muloqot jarayonida duch keladigan muammolar va ularni bartaraf etish usullari ochib beriladi. Maqolada zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida samarali interaksiya strategiyalarini qo'llash bo'yicha takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: muomala madaniyati, pedagogik amaliyot, talaba-o'quvchi interaksiyasi, shaxslararo muloqot, kasbiy kompetensiya, refleksiya, interaktiv metodlar.

Аннотация

В данной статье рассматривается формирование культуры общения в процессе педагогической практики и анализируются особенности



взаимодействия между студентами-практикантами и учащимися. Культура общения представлена как важный компонент межличностной коммуникации, влияющий на формирование профессиональных компетенций будущих педагогов. На основе практических наблюдений и методического анализа выявлены проблемы, возникающие в процессе общения между студентами и школьниками, а также предложены пути их решения. Также даны рекомендации по использованию современных педагогических подходов для построения эффективной коммуникации.

Ключевые слова: культура общения, педагогическая практика, взаимодействие студент–ученик, межличностная коммуникация, профессиональная компетентность, рефлексия, интерактивные методы.

Abstract

This article examines the development of communication culture during pedagogical practice, focusing on the dynamics of interaction between student-teachers and pupils. Communication culture is considered a vital component of interpersonal relations and a key factor in the development of professional competencies in future educators. Based on practical observations and methodological analysis, the article identifies common communication challenges and suggests solutions for improving interaction. It also provides recommendations for implementing modern pedagogical approaches to ensure effective dialogue in the classroom setting.

Keywords: communication culture, pedagogical practice, student–pupil interaction, interpersonal communication, professional competence, reflection, interactive methods.



Kirish

Hozirgi kunda jamiyatning barqarorligi va taraqqiyoti, avvalo, kishilarning intellektual va ma’naviy salohiyatiga bog‘liq bo‘lib, bu bevosita ta’lim-tarbiya tizimining sifatiga va mazmuniga taalluqli hodisa sanaladi. Har qanday davlatning kuch-qudrati, uning madaniy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanish darajasi – eng avvalo, yaxshi tarbiya ko‘rgan, bilimli va vatanparvar avlodga ega bo‘lish bilan belgilanadi. Zотан, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masalaga xaqiqatdan ham hayot – mamot masalasiga aylanib bormoqda”¹.

Bugungi globallashuv davrda yosh avlodni har tomonlama yetuk, axloqan toza, vijdonli, mustaqil fikrlovchi shaxs qilib tarbiyalash eng muhim ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Mamlakatimiz ta’lim tizimida milliy qadriyatlar va pedagogik an’analarni rivojlantirish, shu jumladan muomala madaniyatini shakllantirish masalalari davlat siyosati darajasida e’tiborga olinmoqda. Milliy pedagogika maktabining faollari va zamonaviy ta’lim sohasidagi mutaxassislar pedagogik amaliyotda shaxslararo munosabatlarning madaniyati va etikasi ustuvorligini ta’kidlab, talaba va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqot sifatini yuksaltirishga katta e’tibor qaratmoqdalar. Shu nuqtai nazardan, pedagogik amaliyotda muomala madaniyatini shakllantirish, ayniqsa talaba-amaliyotchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi interaktiv jarayonlarni chuqur o‘rganish milliy ta’lim tizimining samaradorligini oshirish, yoshlarni ijtimoiylashuvi va kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muomala madaniyatini shakllantirish masalasi o‘zbek xalqining qadimiy ma’naviy-falsafiy tafakkurida chuqur ildiz otgan. O‘tmish allomalari asarlarida shaxslararo munosabat, axloqiy yetuklik, muomala etiketlari va so‘z madaniyati

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараккёнёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 504-505-бет.



yuksak qadriyat sifatida talqin etilgan. Xususan, Abu Nasr Forobiy o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida, insonlar o‘rtasidagi madaniy muloqotni jamiyat taraqqiyotining negizi, komil inson tarbiyasining asosiy vositasi deb baholasa, Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida rahbar va muallimlar muloqotida madaniyat va mas’uliyatning ustuvor o‘rin tutishini uqtiradi. Bugungi o‘zbek pedagogikasida bu g‘oyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogika fanlari nomzodi dotsent M. Hamdamova o‘zining “Uzluksiz ta’limda barkamol shaxsni tarbiyalash texnologiyasi” nomli tadqiqotida shaxsning ijtimoiy-psixologik kamoloti, shaxslararo muloqot va muloqotda madaniyat tushunchasini uzviy bog‘langan pedagogik jarayon sifatida izohlab, zamonaviy o‘qituvchi (yoki amaliyotchi talaba) shunchaki bilim beruvchi emas, balki ijtimoiy muloqotni boshqaruvchi madaniyatli shaxs bo‘lishi lozimligini e’tirof etadi.

Pedagogik amaliyot doirasida talaba-amaliyotchilar va o‘quvchilar o‘rtasida yuzaga keladigan interaksiya shunchaki didaktik aloqalar yig‘indisi emas, balki muloqot, tarbiya, emotsiional sezgirlik va shaxsiy mas’uliyat kabi ko‘plab omillarni o‘z ichiga oluvchi murakkab pedagogik-psixologik jarayondir. Muloqot kishilarning birgalikdagi faoliyatining muhim shartlaridan biridir. Muloqot kishilar o‘rtasidagi o‘zaro axborot almashish jarayonidir. Insonning tabiiy ehtiyojidir, chunki odamlar bir-biri bilan gaplashmasdan, axborot almashmasdan yashay olmaydilar. Muloqot tufayli kishilar bir birini tushunadilar, mehnat jarayonida xamkorlik, hamjihatlikka erishadilar, o‘zaro fikr va tajriba almashadilar.

Pedagogik jarayondagi aloqalar tizimida o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi muomala – munosabatlar katta o‘rin egallaydi. Bu jarayonda bola insoniyat asrlar davomida to‘plangan bilimlarni axloqiy tajribani egallab oladi.

Pedagogik faoliyatda o‘qituvchi muloqot asosida o‘quvchilar bilan yaxshi munosabatni tashkil eta olishi, demokratik talablarni qo‘llashi va birgalikda ijodiy faoliyat olib borishi kerak. Pedagogik muloqot esa, bu o‘qituvchi kasbiy faolligining bir ko‘rinishi bo‘lib, bunda ta’lim va tarbiya muammolari o‘qituvchi



hamda o‘quv-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir vositasi bilan hal qilinadi. Bu vaziyatda o‘qituvchi baho beruvchi rolida namoyon bo‘ladi hamda uning o‘zi baho oluvchi hisoblanadi².

Muallimlik pedagogik jarayonda yetakchi kishidir. Unga yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash vazifasi yuklatilgan. Shuning uchun ham o‘qituvchiga, uning axloqiy sifatlari xulqiga, o‘quvchilar bilan muomalasiga nisbatan alohida, yuksak talablar qo‘yiladi. Muallim hayotga endigina kirib kelayotgan barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan insonlar – yosh bolalar bilan muloqotda bo‘ladi.

Bolalar ta’lim-tarbiya jarayonida umuminsoniy va milliy axloq normalarini (mezonlarini) o‘zlashtiradi. O‘quvchi muomala odobini asosan o‘qituvchi timsolida anglab oladi. Sevimli muallim bola uchun bir umr ideal, ibrat, namuna bo‘lib qolishi ham mumkin.

Xususan, mashhur alloma Aziziddin Nasafiy o‘zining “Komil inson” nomli kitobida shunday yozadi: “Bilgilki, komil inson quyidagi to‘rt fazilatga mukammal shaklda ega bo‘lgan insondir. Ularning birinchisi yaxshi so‘z, ikkinchisi ezgu faoliyat, uchinchisi go‘zal axloq, to‘rtinchisi ilm”³. Ushbu mukammal shakllarga ega bo‘lgan inson buyuk davlatimiz poydevorini, farovon hayot asoslarini qura oladi.

Muloqotning asosiy quroli til hisoblangan. Shuning uchun ham til – aloqa quroli sifatida ta’riflanadi. Muloqot madaniyati hamma joyda kerak. Ish joyida, transportda, uyda biz kim bilan qanday muomala qilishni bilishimiz zarur. O‘qituvchining qanchalik bilimli, aql zakovatli ekanligi o‘quvchilarning bir-birlari bilan va ota-onalari bilan olib boradigan muloqoti orqali namoyon bo‘ladi.

Barkamol, ijodkor shaxsni shakllantirishga, tarbiyalashga doir axloqiy normalar pedagogik etikada ifodalangan. Tarbiyalanuvchiga ijobiy ta’sir o‘tkazish shartlaridan biri bolaga bo‘lgan ishonch bilan unga nisbatan qo‘yilayotgan

² Xujayarova N. Umumiyy pedagogika (Pedagogik mahorat). Qarshi “Fan va ta’lim” nashriyoti 2023, 80-81-b

³ Aziziddin Nasafiy. Komil inson. II fasl. / Najmiddin Komilov va Olimjon Davlatov tarjimasi. – B.14



talablarning birligidadir. By qoida pedagogik amaliyotda ko‘p marta sinovdan o‘tgan va o‘zini oqlagan. O’qituvchilar, talabalar bilan o‘tkazilgan suhbat natijalari shundan dalolat beradiki, maktabda xushmuomala o‘qituvchilar bilan bir qatorda bolalarga xuda-bexuda do‘q urib, baqirib muomala qiladigan muallimlar ham uchraydi. Bunday muomala jamiyatda qabul qilingan umuminsoniy va milliy axloqiy normalarga to‘g‘ri kelmaydi. Bunday o‘qituvchilar bolalar orasida obro‘orttira olmaydilar.

Pedagogik jarayon subyektlari qatorida professional faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilar bilan bir qatorda, pedagogika yo‘nalishida tahsil olayotgan talaba-amaliyotchilar ham bevosita ishtirok etadilar. Ularning maktab amaliyoti davomida o‘quvchilar bilan yuzaga keltiradigan muloqot sifati nafaqat dars samaradorligiga, balki o‘quvchilarning psixologik holatiga, o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasiga va ijtimoiy moslashuviga ham sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, talabalar tomonidan muomala madaniyati tamoyillariga rioya qilish, ularning kasbiy shakllanish jarayonining ajralmas va mas’uliyatli bosqichi sifatida e’tirof etilishi lozim.

Amaliyotchi talaba maktabdagagi darslarga tayyorlanayotganda va bevosita o‘quvchilar bilan ishslash jarayonida madaniyatli muloqot, axloqiy me’yorlar, psixologik sezgirlik, shaxsga hurmat kabi muhim komponentlarni ongli ravishda e’tiborga olishi talab etiladi. Chunonchi, pedagogik muloqotda har bir so‘z, harakat, ohang va mimika muayyan tarbiyaviy yuklama kasb etadi. Shuning uchun talaba-amaliyotchi o‘zining muomaladagi har bir ifodasi bilan o‘quvchi ongida o‘qituvchi obrazini shakllantiradi, uning ma’naviy dunyosiga bevosita ta’sir qiladi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, talabaning muomala madaniyatiga bo‘lgan yondashuvi faqatgina individual odob-axloq darajasi emas, balki uning kasbiy madaniyati, pedagogik saviyasi va ijtimoiy mas’uliyat hissini ifodalaydi. Bu esa uni oddiy “amaliyotchi” emas, balki barkamol, ongli va madaniyatli shaxs sifatida ko‘rsatadi.



Muloqot madaniyatini egallash bo'lg'usi pedagoglar uchun ayniqsa axamiyatlidir. Chunki o'qituvchi faoliyati xamisha o'quvchilar bilan muloqotda kirishishni, o'zaro munosabatda bo'lishni taqozo etadi. Muloqot jarayoni tufayli o'quvchilarga ta'lif beradi, pedagogik ta'sir ko'rsatadi, ularda ilmiy dunyoqarash, yuksak e'tiqodni shakllantiradi, ijobiy axloqiy sifatlarni tarkib topdiradi. Lekin institutni tamomlab pedagogik faoliyatga yo'llanma olayotgan barcha talabalarni ham muloqot madaniyatini puxta egallagan, o'z fikrini boshqalarga erkin bayon qila oladigan, sof adabiy tilda so'zlaydigan mutaxasislar bo'lib yetishyapti, deb ayta olmayapmiz. Shunday ekan, talabalarda muloqot madaniyatini, ayniqsa, pedagogik muloqotni tarbiyalash pedagogika institutlaridagi ta'lif tizimining ajralmas qismi, eng muxim vazifalaridan biri bo'lishi lozim.

Pedagogik muloqot o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtafidagi muloqot bo'lib, bu jarayonida o'zaro axborot almashish tufayli o'qituvchi o'quvchilarga bilim beradi, ularga tarbiyaviy tasir ko'rsatadi, o'zaro bir-birini tushunishga, idrok qilishga erishiladi. O'qituvchi pedagogik jarayonda o'quvchilar bilan hamkorlikni to'g'ri tashkillay olsa, ya'ni tarbiya maqsadi va vazifalariga mos keluvchi o'zaro ta'sir, o'zaro tushunishga yo'lga qo'ya olsagina ko'zlagan maqsadiga erishadi. Buning uchun bo'lajak o'qituvchi pedagogik muloqotga qo'yiladigan talablar, uning qonuniyatlarini puxta egallagan bo'lishi lozim.

Pedagogik amaliyot jarayonida talaba-amaliyotchining faqatgina dars o'tish texnologiyalarini bilishi yetarli emas. U o'z kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish uchun, eng avvalo, shaxslararo munosabatlarning psixologik-pedagogik asoslarini chuqur anglab yetishi zarur. Chunki pedagogik muloqot ikki subyektning oddiy axborot almashinushi emas, balki insonlararo hissiy, ijtimoiy va madaniy aloqalar tizimi sanaladi. Mazkur holatda har bir ishtirokchining shaxsiy fazilatlari, ehtiyojlari, dunyoqarashi va emotsiunal reaksiyalari o'z ifodasini topadi. Shu ma'noda, amaliyotchi talabaning shaxslararo munosabatlar borasidagi bilim va ko'nikmalari, uning pedagogik interaksiyada qanday pozitsiyani egallashi,



o‘quvchilarga qanday munosabat bildirishida muhim rol o‘ynaydi. Talabaning o‘z-o‘zini tutishi, empatiya darajasi, ijtimoiy sezgirligi, konfliktli vaziyatlarga madaniy yondashuvi o‘quvchilar bilan barqaror, ijobiy, konstruktiv munosabatlar o‘rnatishning zarur sharti hisoblanadi.

Shaxslararo munosabatlarning asosini talabalarning emotSIONalliklari, motivatsion jarayonlar, qadriyatlar va shaxsiy fikrlari tashkil etadi. Shaxslararo muloqot tushunchasi to‘liq ma’noda shaxslararo aloqa, shaxslararo kommunikatsiya, shaxslararo birgalikdagi faoliyat, o‘zaro harakatlar va muloqotni o‘z ichiga oladi. Ushbu tushunchalarning har biri o‘zaro aloqador bo‘lishi bilan bir qatorda o‘zining mazmun mohiyatiga ham ega. Shaxslararo kommunikatsiya o‘zida fikr almashinishning turli usullari shaxslararo axborot almashinish hamda qayta ishlash usullarini mujassamlashtiradi. Shaxslararo birgalikdagi munosabatlar esa muloqot jarayonidagi sheriklik, o‘zaro munosabatlardan iborat. Bunday faollik muhim ahamiyatga ega bo‘lib, muloqotdoshlarning o‘zaro munosaatlarini muvofiqlashtiradi. Ular birgalikdagi hamda yakka tarzdagi faoliyatning barcha turlarini tadqiq etadilar. Mazkur harakatlar birgalikda pozitiv o‘zgarishlarni amalgaloshirish, faoliyat usullarini egallash, o‘zaro munosabatlar va ustanovkalarni o‘zgartirishga asos bo‘ladi. Shaxslararo munosabatlar shuni angalatadiki, talabalar orasidagi aloqalar hissiy emotsional yo‘nalishga ega bo‘lib, bunday yo‘nalishsiz shaxslararo muloqotni amalgaloshirish imkonsiz⁴.

Shaxslararo munosabatlar, inson xulqini tadqiq qilish fenomeni so‘nggi yuz yillik davomida ilmiy jamoatchilik e’tiborida bo‘lib kelmoqda. “O‘yinlar nazariyasi” va “transaksion tahlil”ning asoschisi E.Bern o‘z qarashlarida o‘zaro munosabatlarda namoyon bo‘ladigan psixologik manipulyatsiya unsurlarini yoritgan va shaxslararo munosabatlarda ularning namoyon bo‘lishini tavsiflagan

⁴ Maxmudov Yu. Bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo madaniy munosabatlarga tayyorlashda muloqot funksiyalaridan samarali foydalanish imkoniyatlari. International scientific-practical conference “Strategies for the development of professional competence of future teachers based on the approach of cultural studies: problems and solutions”, october 19-20, 2023. 242-b



bo'lsa, D.Karnegi o'z kitoblarida insonlar o'rtasida muloqot olib borish, muomala etiketiga rioya qilish asosida ular qalbiga yo'l topish, ular ongiga ta'sir ko'rsatish masalalariga alohida e'tibor qaratgan va jamoani boshqarishda jamiyatda yashayotgan har bir qatlamning ontogenetik davr mobaynida shakllangan psixologik holatlaridan kelib chiqib, amalga oshirish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatib o'tgan⁵.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogik amaliyot davomida talaba va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar ko'p jihatdan shaxslararo aloqalarning sifati, talabaning kommunikativ madaniyati, o'zini tutishi va emotsiyal barqarorligiga bog'liq. O'quvchilar talabaning o'zlariga nisbatan munosabatini tezda sezadilar va o'z xatti-harakatlarini shunga moslashtiradilar.

Muhim vazifalaridan bir talabalarda muomala madaniyatini rivojlantirish metodikasi va uni tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Turli o'quv fanlari kesimida talabalarda muomala madaniyati ko'nikmalarini shakllantirish metodikasini ishlab chiqish taqozo qilinmoqda. O'quv jarayonida talabalarni muomala madaniyati tarkibiga kiradigan lingvistik tushunchalar hamda bilimlar bilan qurollantirish orqali bo'lajak o'qituvchilarning nutqiy kommunikativ muloqot madaniyatini rivojlantirishga alohida e'tibora qaratiladi. Bunda quyidagi o'quv kurslari mazmunini boyitish talab qilinmoqda "Madaniyatshunoslik", "Falsafa", "Ona tili", "Tarix" va "Didaktika". Bu o'z navbatida muomala odobi bilan bog'liq falsafiy qonuniyatlar, nutq odobiga oid tarixiy ma'lumotlar hamda ona tili sifatida o'zbek tili nazariyasining talabalar tomonidan puxta o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Pedagogika turkum fanlari doirasida tashkil etiladigan mustaqil ishlar, seminar mashg'ulotlari davomida bo'lajak o'qituvchilar nutqiy muloqot madaniyatiga oid biimlar tarixiy ijtimoiy tajribalar, modellar va konsepsiyalarni o'zlashtirish imkonini beradigan baxs munozara, suhbat vaziyatlariga jalgan

⁵ Карнеги Д. Язык убеждений. – М., 1999. – 560 с



etiladilar. Oliy pedagogik ta’lim muassasalari tajribasini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, pedagogika turkum fanlarini o‘qitishda talabalarning muomala odobi, nutqiy muloqot madaniyatini rivojlantirishga oid bir qator tajribalar mavjud. Bunday jarayonlar axborot berish xarakteriga ega bo‘lib, talabalarning muomala odobini rivojlantiruvchi xarakter kasb etmaydi. Rivojlangan mamlakatlar shuni ko‘rsatmoqdaki bir yoki ikki ixtisoslik yo‘nalishida oliy ma’lumot olishning o‘zi shaxsning rivojlanishi uchun yetarli emas.

Pedagoglarda muomala madaniyatini shakllantirishda nutq texnikasining ham o’rni muhim sanaladi. Nutq texnikasi deyilganda – nutqning tinglovchi yoki talabaga yetkazishda qo’llaniladigan vositalar tushuniladi. Nutq ikki xil ko’rinishda bo’lganidek, uning texnikasini ham ikki xil ko’rsatish mumkin: og’zaki va yozma nutq texnikasi.

Og’zaki nutq texnikasi tovush, bo’g’in, so’zlar, uning shakllarini talaffuz etishni yaxshilash borasida nutq organlarini faollashtiruvchi mashqlarni anglatadi. Bunga nafasdan foydalanish, tovush tembrlarini yaxshilash, fiksiyaga e’tibor berish, tovushlarning past-baland tovlanib turishi, unli va undoshlarni talaffuz etish, ohang kabialr kiradi⁶.

Muntazam bilim olish va kasbiy kompetensiyalar mazmunini boyitish uchun bo‘lajak o‘qituvchilarning muomala odobini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonlarni loyihalash, tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning muomala madaniyatini rivojlantirish maqsadida kasbiy kompetensiyalar mazmunini boyitish ehtiyojining vujudga kelganligi nutqiy muloqotni rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish zaruriyatini kuchaytirdi.

Pedagogik amaliyot jarayonida talaba-amaliyotchilarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan muloqotida yuzaga keladigan ziddiyatli vaziyatlar, ko‘pincha pedagogik nojo‘yalik, emotsional befarqlik yoki kommunikativ madaniyat yetishmovchiligi natijasida yuzaga chiqadi. Xususan, o‘qituvchi (yoki amaliyotchi)

⁶ Axmedova M. Pedagogik konfliktologiya. Toshkent – 2020. 146-147-b.



tomonidan bolalarning psixologik nozikligiga e'tiborsizlik, qo'pol til ishlatish, rad etuvchi munosabat va shafqatsiz baholash usullari o'quvchi shaxsiyatida xavfli psixo-emotsional izlar qoldiradi.

Bunday holatlar – masalan, bolaning xatolariga nisbatan "sendan hech narsa chiqmaydi" kabi kamsituvchi iboralar ishlatish, yoki uning ijtimoiy faolligini (masalan, she'r o'qish istagini) e'tiborsiz rad etish – o'quvchi va o'qituvchi (yoki amaliyotchi) o'rtasidagi ishonch muhitini izdan chiqaradi. Ziddiyatlarning ildizi ko'pincha o'qituvchining madaniyat darjasи, psixologik tayyorgarligi va shaxslararo munosabatlardagi noziklikni anglay olmasligiga borib taqaladi. U mojarodan chiqishning bir necha odatiy yo'llarini va bu to'qnashuvlarning bir yoki ikkala tomonga olib keladigan o'zgarishlarni ochib beradi. Ko'pincha mojaroli voqealar o'quvchilarning ongi, xatti harakati va farovonligiga ta'sir qiladi. Faqatgina ahamiyatsiz joyni ijobiy natijalar egallaydi, ular asosan ta'limdagi muvaffaqiyatlarni yaxshilash, xatti-harakatlarni normallashtirish, yomon ishlarning yo'q bo'lib ketishi va boshlang'ich maktab o'qituvchisi tomonidan qabul qilingan talablarga javoban ijro etuvchi kuchni kuchaytirishda namoyon bo'ladi⁷.

O'qituvchi (yoki amaliyotchi)larda muomala madaniyati borasida mulohaza yuritishda quyidagi psixologik omillar interaksiyaning sifati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligiga e'tibor qaratish mumkin:

-empatiya – o'quvchining ichki holatini his qilish va unga mos munosabat bildirish qobiliyati;

-verbal va neverbal muloqot uyg'unligi – so'z va tana tili orqali beriladigan signallar;

-komunikativ to'siqlarni yengish – til, yosh, ijtimoiy farqlarni pedagogik mahorat bilan yengish.

⁷ Umarova Z. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish. Monografiya. Toshkent «Ishonchli hamkor» 2021, 34-35-b



Talabaning o‘zini qanday tutishi, nutqidagi muloyimlik yoki keskinlik, ko‘z bilan aloqa, tana tili kabi omillar o‘quvchilarda unga nisbatan ishonch yoki ishonchsizlik uyg‘otadi.

Muomala madaniyatining bu darajalari talabaning shaxsiy fazilatlari, kommunikativ tayyorgarligi va pedagogik refleksiya qobiliyatiga bog‘liq bo‘lib, ularda faoliyat davomida sezilarli rivojlanish ko‘rinadi.

Ko‘pgina tadqiqotchilar o‘tkazgan tahlil natijalariga ko‘ra, interaksiyada eng ko‘p uchraydigan muammolarni quyidagicha ifodalah mumkin:

Muammo	Sabab
<i>Sovuq, rasmiy muloqot</i>	<i>Talabaning tajribasizligi, ichki ishonchsizlik</i>
<i>Buyruqbozlik yoki qat’iylik</i>	<i>Muloqot strategiyasida autoritar yondashuv</i>
<i>O‘quvchini e’tiborsiz qoldirish</i>	<i>Diqqatning faqat dars mazmuniga qaratilishi</i>
<i>Yaxshi fikrni rag‘batlantirmaslik</i>	<i>Kompliment va motivatsiya texnikasidan foydalanmaslik</i>

Mazkur muammolar muloqotda madaniyatsizlik emas, balki ko‘proq kommunikativ kompetensiya yetishmasligi, tajriba va refleksiyaning kamligidan kelib chiqadi.

Pedagogik amaliyot doirasida muomala madaniyatini shakllantirish talabalar uchun nafaqat kasbiy ko‘nikma, balki shaxsiy axloqiy-psixologik sifat sifatida o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan asosiy kompetensiyalardan biridir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, pedagogik interaksiyada madaniyatli, axloqiy, ijobiy muloqot



o‘rnatish o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan munosabatini, o‘z-o‘zini baholashini va darsda ishtirokini bevosita belgilaydi.

Tarbiyaning zamonaviy tamoyillari – tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o‘rtasida sub’yekt-sub’yekt munosabatlarining o‘rnatilishi, dialog nuqtai nazariga muvofiq tarzda shunday xulosaga kelindiki, ma’naviy-axloqiy tarbiyaning muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun psixik jarayonlarga (motivasiya, anglash, interiorizasiya va boshqalar) tashqi ta’sirlar ichki, individual-shaxsiyga organik va mustahkam aylanadigan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zarur⁸.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv zamonaviy pedagogikada eng samarali va insonparvar strategiya sifatida e’tirof etiladi. Bu yondashuv quyidagilarga asoslanadi: birinchidan, o‘quvchini faqat bilim oluvchi emas, balki shaxs sifatida qabul qilish; ikkinchidan, har bir o‘quvchining ehtiyoji, psixotipi va emotsiyonal fonini hisobga olish; uchinchidan, muloqotda o‘zaro hurmat, ishonch va ochiqlikni ustuvor qilish.

Talaba-amaliyotchi shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv orqali o‘quvchini darsning faol ishtirokchisiga aylantiradi, bu esa muloqotni tabiiy va ijobjiy ruhda rivojlantiradi.

O‘qituvchi (yoki amaliyotchi)larda muomala madaniyatini shakllantirish uchun quyidagi metod va texnologiyalar ijobjiy natija berishi mumkin:

1. *Rolli o‘yinlar.* O‘qituvchi va o‘quvchi rollarini almashtirib, empatiyani rivojlantirish mumkin.
2. *Dialogik ta’lim.* Talaba va o‘quvchi savol-javob, muhokama orqali interaktiv muloqotni rag‘batlantirish mmumkin.
3. *Kichik guruhlarda ishlash.* Talaba va o‘quvchilar hamkorlikda fikr almashish, ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

⁸ O‘rinova N, Tuychiyeva I, Baydjanov B. Umumiy pedagogika (Pedagogika nazariyasi) O‘quv qo‘llanma FARG‘ONA -2023. 234-b



4. *Reflektiv tahlil.* Talabaning o‘z muloqotini tahlil qilish orqali kerakli xulosalarни chiqarish va takomillashishi mumkin.

Ushbu metod va texnologiyalar talaba-amaliyotchining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, o‘quvchilar bilan ijobiy va samarali muloqot o‘rnatish, hamda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni amaliyotda qo‘llashga xizmat qiladi. Ular orqali talaba faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchini tinglay oluvchi, tushunuvchi va rivojlantiruvchi pedagog sifatida shakllanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, pedagogik amaliyot jarayonida talaba-amaliyotchining o‘quvchilar bilan kommunikativ munosabatlari faqatgina o‘quv jarayonini tashkil etish emas, balki shaxslararo axloqiy, madaniy va psixologik aloqalarning murakkab tizimidir. Muloqot madaniyati, bu nuqtai nazardan, pedagogik jarayonning tarkibiy qismi bo‘lib, o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari, kasbiy kompetensiyasi va tarbiyaviy ta’sir doirasi bilan bevosita bog‘liqdir. Amaliyotchi talabaning muomala madaniyati uning emotsional barqarorligi, ijtimoiy sezgirligi, empatiyasi, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshira olish salohiyati orqali namoyon bo‘ladi. Shunday yondashuv pedagogik muloqotni faqat axborot uzatish emas, balki madaniy-ma’naviy rivojlanishning asosiy vositasiga aylantiradi. O‘quvchi bu jarayonda bilish subyekti sifatida emas, balki to‘laqonli muloqot ishtirokchisi, shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, pedagogik amaliyot nafaqat kasbiy ko‘nikmalarni egallash maydoni, balki pedagog shaxsining kommunikativ va madaniy taraqqiyoti uchun zarur ijtimoiy-pedagogik muhit sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 504-505-бет.



2. Xujayarova N. Umumiy pedagogika (Pedagogik mahorat). Qarshi “Fan va ta’lim” nashriyoti 2023, 80-81-b
3. Aziziddin Nasafiy. Komil inson. II fasl. / Najmuddin Komilov va Olimjon Davlatov tarjimasi. – B.14
4. Maxmudov Yu. Bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo madaniy munosabatlarga tayyorlashda muloqot funksiyalaridan samarali foydalanish imkoniyatlari. International scientific-practical conference “Strategies for the development of professional competence of future teachers based on the approach of cultural studies: problems and solutions”, october 19-20, 2023. 242-b
5. Карнеги Д. Язык убеждений. – М., 1999. – 560 с
6. Axmedova M. Pedagogik konfliktologiya. Toshkent – 2020. 146-147-b.
7. Umarova Z. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish. Monografiya. Toshkent «Ishonchli hamkor» 2021, 34-35-b
8. O‘rinova N, Tuychiyeva I, Baydjanov B. Umumiy pedagogika (Pedagogika nazariyasi) O‘quv qo‘llanma FARG‘ONA -2023. 234-b